

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA GIG IQTISODIYOTINING O'RNI VA
UNING RIVOJLANISHI

Mamadiyorov Olimjon Umarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD

Abdiqodirova Charos Ollabergan qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning malum va mashxur turlaridan biri GIG IQTISODIYOT haqida so'z yuritiladi. Maqolada GIG iqtisodiyotning umumiy ko'rinishi, kelib chiqishi, hozirgi rivojlanib borayotgan asrda jamiyatimizga ta'siri va u haqida chet el olimlarining fikrlari va ba'zi faktlarga asoslangan ma'lumotlar va ularnin tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: almashish iqtisodiyoti, acces iqtisodiyoti, platforma iqtisodiyoti, talab bo'yicha iqtisodiyot, gig iqtisod, frilanser, frilanserlik, ish blan ta'minlovchilar, tovarlar bilan ta'minlovchilar, iste'molchilar, movhimlik, tavakkulchilik. chegaralarsiz ishlash

Annotatsion: This article discusses one of the well-known and popular types of economy, GIG ECONOMY. The article presents a general overview of the GIG economy, its origins, its impact on our society in the current developing century, and the opinions of foreign scientists about it, as well as some factual information and their analysis.

Keywords: sharing economy, access economy, platform economy, on-demand economy, gig economy, freelancer, freelancing, job providers, goods providers, consumers, mobility, risk taking. working without borders

1. Kirish

O'zini tirik bir jon, jamiyatning ma'lum bir bo'lagi, inson hisoblaydiganlar bilamizki har kun davomida bir necha tur iqtisodiy masalalarga duch kelamiz. Biz uchun eng muhi iqtisodiy masalalar "Common"laridan oziq-ovqat, uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qanday qondirish, kiyim-kechak, ta'lim, dam olish, qanday turdagi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish, u yoki bu narsani sotib olish yoki olmaslik, ma'lum bir mahsulotni sotib olish yoki kerakli xizmatni ko'rsatish uchun yetarli daromad yetarlimi? Aynan shu kabi masalalarga yuzlanganimizda, o'zimiz uchun to'g'ri va foydali bo'lgan qarorni qabul qilishimiz uchun masalani iqtisodiy jihatdan to'g'ri tahlil qilishimizda iqtisodiy bilimlarimizga tayanamiz.

Insonning uy-joy, yetarlicha kiyim-kechak, oziq-ovqat va hakerolarga bo'lgan cheksiz ehtiyojlarini cheklangan resurslardan unimli foydalanish yordamida qondirishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan faoliyat va harakatlarni yaxlitlikda birlashtiruvchi iqtisodiy tizimni bir so'z bilan "Iqtisodiyot" deb ataymiz.

Ushbu maqolada esa aynan har kunimizda uchratadigan voqealıklarimizning asl negizi bo'lmish iqtisodiyotning jaxonda ma'lum va mashxur lekin bizni mamlakatimizda chuqur o'rganilishi zarur bo'lgan turlaridann biri GIG iqtisodiyotni tahlil qilamiz.

Qisqa muddatli, moslashuvchan, o'zgartirila olinadigan ish jadvallari asosida olib boriladigan, to'liq stavkalik doimiy ishchilar o'rniga frilanserlar va vaqtincha yollanma ishchilarga bizness egalari tomonidan taklif qilinadigan ishlar GIG iqtisodiyotning umumiy ko'rinishi hisoblanadi.

2. Adabiyotlar sharhi

Friedman (2014) So'nggi yillarda raqamli platformalar asosida shakllanayotgan **GIG iqtisodiyoti** mehnat bozorining muhim segmentiga aylandi. GIG iqtisodiyoti qisqa muddatli shartnomalar, mustaqil pudratchilik va moslashuvchan ish shakllari bilan tavsiflanadi. Ushbu model an'anaviy bandlik munosabatlaridan farq qilib, ish beruvchi va xodim o'rtasidagi masofani raqamli platformalar orqali boshqaradi.

Katz va Krueger (2019) GIG iqtisodiyoti mehnat bozori ishtirokchilariga vaqt va joy bo'yicha erkinlik berishini, shu bilan birga bandlik darajasini oshirish imkoniyatiga ega ekanini ta'kidlaydi.

Sundararajan (2016) platforma iqtisodiyoti innovatsiyalarni tezlashtirishi va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishini qayd etadi.

De Stefano (2016) GIG ishchilari mehnat huquqlari, ijtimoiy himoya va barqaror daromad masalalarida zaif holatda ekanini ko'rsatadi.

Wood va boshqalar (2019) global miqyosda faoliyat yurituvchi platformalar orqali ishlovchi GIG ishchilari mehnat sharoitlari notekisligini aniqlab, algoritmik boshqaruv va reyting tizimlarining xodimlar ustidan nazoratni kuchaytirishini ta'kidlaydi.

Mavjud adabiyotlar GIG iqtisodiyotini ikki tomonlama hodisa sifatida talqin qiladi: bir tomondan, u moslashuvchanlik va daromad topish imkoniyatlarini kengaytirs, ikkinchi tomondan, ijtimoiy himoya va mehnat barqarorligi bilan bog'liq yangi muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, GIG iqtisodiyotining uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarini chuqurroq o'rganish dolzarb hisoblanadi.

3. Tadqiqot metodologiyasi: tadqiqot jarayonida mavjud ma'lumotlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlarini analitik kuzatuv, induktiv, deduktiv, ekspress-baholash va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar:

Qisqa muddatli, moslashuvchan, o'zgartirila olinadigan ish jadvallari asosida olib boriladigan, to'liq stavkalik, doimiy ishchilar o'rniga frilanserlar va vaqtincha yollanma ishchilarga bizness egalari tomonidan taklif qilinadigan ishlar GIG iqtisodiyotning umumiy ko'rinishi hisoblanadi.

Ishchi asosan o'ziga o'zi boshliq bo'lishhi va qay tartibda qanday, qaysi vaqtlar oralig'ida ishlashini hal qilaoladi va hatto buyurtmachilarni ham o'zi tanlash hhuquqiga egalik qiloladi.

Ortiqcha yuklamalarsiz, hech qanday nazorat ostida ofislarda ishlash zaruratisiz, topshiriqlarni kimdir tomonidan belgilangan jadvallar asosida emas, o'zingiz mustaqil ravishda youd o'z muallifligingiz asosida tuzilgan jadvallar asosida islash huquqi.

Aynan xar kuni bir xil ravishda, bir xil ish stoli, bir xil vazifalar ketma-ketligi bilan emas, har kuni turlichha vazifalar bilan shug'illana olish huquqi.

Tadbirkor, ish beruvchi businessmenlar uchun esa mablag'ni yetarlicha tejash imkoni, ya'ni doimiy ishchilarni yollash o'rniga kunlik ishchilar, frilanserlarga malum miqdordagi summa asosida kelishish doimiy ishchilarga to'lanadigan oylik summalaridan ancha farqli.

Ushbu soha ishchilari –frilanserlar-asosan onlayn platformalar yoki frilans bozor uchun hizmat qiluvchi ilovalar orqali individual buyurtmalarni qabul qilib olish va belgilangan muddat oralig'ida buyurtmani tayyor qilib, buyurtmachi orqali kelishilgan summaga aasosida haq olishadi.

Shu o'rinda GIG iqtisodiyotda o'z o'rniga ega bizneslar haqida ham to'xtalib o'tsak: Jaxon bozorida **Fiver, Upwork, Uber, DoorDash, Grubhub, Instacart, Amazon va Guru** onlayn platformalari Frilanserlik sohasida o'z nomi bilan tanilgan platformalardan biri AQShning San-Fransiskoda joylashgan xalqaro texnologiya kompaniyasi Uber — bu mobil ilova orqali taksi chaqirish, mashina buyurtma qilish va ovqat yetkazib berishni osonlashtiradigan. Ilova orqali mijozlar mashinani bron qilishadi, uning kelishini kuzatib borishadi va to'lovni amalga oshirishadi.

- AQShda Uber haydovchilariga to'lov miqdori an'anaviy taksi haydovchilariga qaraganda vaqt birligi uchun 30 foiz, masofa birligi uchun 50 foizgacha yuqori;


ADP (Automatic Datas Proccesing) Instituti hisoblab chiqqan statistikaga nazar soladigan bo'lsak, gig iqtisodiyoti o'tgan yilda 2010-2019 yillar oralig'idagi o'sishga qaraganda 15 foiz ko'proq o'sishni boshdan kechirdi. MasterCard va Kaiser Assoiates nashrlariga ko'ra, gig ekonomiyasi 2023-yilda 455 milliard dollar qiymatda pul o'tkazmalarini qamrab olgan.

Ta'kidlab o'tganimizdek, GIG iqtisodiyot ishtirokchilari ish bitimlarini onlayn raqamli platformalar orqali onlayn tarizda masofadan turib tuzishadi va shu orqali o'z mehnat faoliyatlarini olib borishadi. Ushbu jarayon ham asosiy biznes faoliyatlari kabi asosan 3ta ishtirokchidan ish beruvchi, talabgor va boshqaruvchidan iborat.

Bular PLATFORMA KOMPANIYALAR—talab va taklifni birlashtiruvchi bozor" singari, ish beruvchi va ish izlovchilarni birlashtiruvchi, qaysidir manoda ularni bir jamoaga birlashtiruvchi raqamli platformmalardir. Mamlakatimizda xam GIG iqtisodiyotning ko'plab turlari mavjud ulardan HEAD HUNTER, OLX, YANDEX GO, YANDEX DELIVERY, UZUM, TEZKOR, EXPRESS24 va shu kabi platformalarni misol qilishimiz mumkin.

Hayotimiz reallikka asoslanganligi bilan, turli toifa odamlarni uchratamiz, bazilarining umumiy daromadi shu platformalar orqali, frilanserlik orqali va bu orqali qo'shimcha daromad qiluvchilarni. Aynan shu ikki toifa odamlarni, GIG iqtisodiyotda LABOR PROVIDERS va GOODS PROVIDERS nomlari bilan farqlaymiz.

1-rasmda ko'rsatilgani kabi asosiy ommillaridan biri bu "Ish rejimining moslashuvchanligi" deb belgilangan.



1-rasm. GIG ishchilarining tanlov sabablari %

LABOR PROVIDERS=xizmat ko'rsatuvchilar

Yuqori malaka talab etilmaydigan, unchalik qiyin bo'lmagan, o'g'irlik jihatidan asosan yengilroq, qiyin bo'lmagan vazifalarni bajaruvchilar. Daromadi nisbatan kamroq bo'ladi.

GOODS PROVIDERS=Tovar taqdim etuvchilar

Yuqorida sanab o'tilgan toifaga kiruvchi ishchilar qaysiki o'zining qo'shimcha daromadini ushbu platformalar orqali topuvchilar. Ko'p hollarda o'zining asosiy mutaxassisligi mavjud, doimiy ishiga ega, yuqori mahorat egalari. Yuqori malakasi va mahoratiga egaligi sababli daromadi nisbatan ko'proq.

Ushbu turga misol qilib rassomlar, hunarmadlar, dizaynerlarni keltirishimiz mumkin. Shuningdek, tadqiqotda gig ishchilar dunyo bo'ylab qariyb 545 ta GIG platformalardan o'z faoliyatini yuritayotgani keltirib o'tilgan.

5. Xulosa va takliflar:

Butun dunyo bo'ylab keng va jadal rivojlanib borayotgan bu soha yurtimizni ham chetlab o'tmagan, O'zbekistonda hali hamon rivojlanish bosqichida bo'lsada GIG iqtisodiyotning o'z o'rnini bor. So'ngi yillardagi internet va texnologiyalarning keng tarqalishi, foydalanish darajasining oshishi ushbu iqtisod turining pick" darajasiga chiqishda qulay sharoit yaratib beryapti. GIG platformalar ayniqsa yoshlar, ayollar va yuqori malakaga ega bo'lmagan ishchilar va hattoki yuqori malakali bo'lsada ofis ishlari uchun yosh jihatdan kattalar (pensi yoshiga yetganlar) uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda). Bir so'z bilan aytganda, har toifa aholiga qulaylik yaratmoqda.

GIG platformalarning paydo bo'lishi va o'zini o'zi band qilishga nisbatan yumshoq soliq siyosati tufayli ishchilar hamda kichik biznes egalarida doimiy bandlikdan ko'ra o'zini o'zi band qilishga qiziqish ko'proq ortishi kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Friedman, G. (2014). Workers without employers: Shadow corporations and the rise of the gig economy. Review of Keynesian Economics.
2. Sundararajan, A. (2016). The Sharing Economy: The End of Employment and the Rise of Crowd-Based Capitalism. MIT Press.
3. Katz, L. F., & Krueger, A. B. (2019). The rise and nature of alternative work arrangements. ILR Review.
4. De Stefano, V. (2016). The rise of the “just-in-time workforce”. Comparative Labor Law & Policy Journal.
5. Wood, A. J., et al. (2019). Good gig, bad gig: Autonomy and algorithmic control in the global gig economy. Work, Employment and Society.